Infratuzilmalar xo'jaligi sifatida ijtimoiy qo'shimcha xarajatlar nazariyasi, o'zining ayrim ijobiy tomonlari mavjudligiga qaramay, apologetik nazariya hisoblanadi, ya'ni xususiy kapitalning manfaatlarini himoya qiladi. G'arbiy iqtisod fanidagi "ijtimoiy qo'shimcha kapital" tushunchasi kapitalni kiritishdan foyda olinadigan va ma'lum darajada "umummilliy" ehtiyojlarni qondiradigan sohalarda xususiy tadbirkorlikning samarali ishlashini ta'minlaydigan xarajatlarni bildiradi. Infratuzilma nazariyotchilari xususiy mulkni himoya qilgan va rivojlanayotgan mamlakatlar oldida turgan o'ta keskin muammoni, ya'ni iqtisodiy o'sish sur'atlarini bosqichma-bosqich oshirish muammosini hal qilishga uringan holda, yuqori o'sish sur'atlariga faqat ijtimoiy qo'shimcha kapital yoki ijtimoiy qo'shimcha xarajatlar shakllangan taqdirdagina erishish mumkin degan fikrni ishonch bilan isbotlashga urinadilar. Bizning fikrimizcha, infratuzilma konsepsiyasining ikkita o'ziga xos xususiyati mavjud: bir tomondan, u davlatning iqtisodiy faoliyatini kuchaytirish zaruratini asoslaydi, ikkinchi tomondan esa – uni bozor xo'jaligining umumiy o'sish sharoitlari yaratiladigan iqtisodiyot tarmog'i bilan bog'laydi.

Infratuzilmani rivojlantirish muammosi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasida, o'z kapitalidan albatta foyda olish tamoyillari emas, balki xususiy kapitalning samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash tamoyillari bo'yicha rivojlanayotgan sohadagi davlat xarajatlarini asoslash uchun tadqiqot obyektiga aylandi. Masalan, italiyalik tadqiqotchi-iqtisodchi A.Pezenti shunday deydi: "Agar gap qurollanishga sarf-xarajatlar haqida ketmayotgan bo'lsa, u holda kapitalizm sharoitida davlatdan talab qilinayotgan kapital qo'yilmalarning obyekti "ijtimoiy ishlar"dan, ya'ni hozirgi vaqtda "infratuzilma" deb ataladigan sharoitlar majmuini (yo'l tarmog'i, transport vositalari, yer tuzish va boshqalarni) yaratishdan iborat bo'lishi zarur. Ushbu ishlar firmalarning infratuzilma xarajatlarini kamaytiradi, ya'ni kapital aylanish jarayonlarini osonlashtirish orqali ular faoliyat yuritadigan iqtisodiy muhitni yaxshilaydi, va shu orqali nafaqat birlamchi maqsad bo'lmish daromadlarni va bandlikni oshirishga yordam beradi, balki umuman xususiy sektordagi umumiy foyda darajasini ham oshiradi" [3, 4].

Shunday qilib, iqtisodiyot nazariyasida infratuzilma muammosini birinchi o'ringa qo'yish, birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish strategiyasini ishlab chiqish bilan, ikkinchidan esa, rivojlangan mamlakatlarning xo'jalik yuritish mexanizmida davlat rolini kuchaytirish bilan bog'liq. Bu hodisani baholash o'tish davridagi iqtisodiyotni o'rganish va uni bozor munosabatlari rivojlangan iqtisodiyotga aylantirish uchun muhim ahamiyatga ega.

MDH iqtisodchilari fanida infratuzilma, xuddi g'arbcha talqinlar kabi, xususiy kapitalga ega korxonalarning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadigan umumiy foydalanishdagi tarmoqlar majmuasi sifatida ko'rib chiqiladi (A.G.Mileykovskiy, G.P.Solyus, Yu.I.Rigin va boshqalar). Ammo infratuzilmaga tegishli tarmoqlarning yanada keng ro'yxati taklif etiladi. Unga har xil turdagi transport (temir yo'l, suv, avtomobil, havo) va transport qurilishi (yo'llar, aerodromlar, kema to'xtash joylari, portlar va boshqalar); energetika; aloqa vositalari (telefon va telegraf va boshqalar); suv ta'minoti va sanitariya-texnik xizmatlarni ko'rsatish sohalari kiritiladi. Ayrim tadqiqotchilar (E.B. Alayev, L.B. Aristova, L.N. Karpov) ishlab chiqarish infratuzilmasini ajratib alohida ko'rsatadilar. Bizning fikrimizcha, infratuzilmani turlicha ta'riflash uni turli darajada tahlil qilinishi bilan bog'liq.

Aksar iqtisodchilar davlatning bozor iqtisodiyotiga aralashuvi zarurligini tan olgan holda uning faoliyatini aniqroq ajratib belgilashga qiladi. Ularning fikricha, davlat faoliyatining turli sohalariga qonun va tartibni saqlash, bozorlar va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, daromadlarni taqsimlash, barqaror o'sishning zaruriy sharti sifatida iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, umumxo'jalik maqsadlaridagi ishlab chiqarishning samarasiz xarajatlarini qoplash yoki infratuzilma sohasidagi davlat tadbirkorligi kiritadi.

G'arb iqtisodchilari uchun infratuzilma muammosi bo'yicha asosiy nazariy yondashuvlardan biri xususiy va davlat kapitali o'rtasidagi, xususiy va ijtimoiy xarajatlar o'rtasidagi ziddiyatni hal qilish yo'llarini izlashdir. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida infratuzilma davlat tomonidan tartibga solinadigan muhim sohalardan biri hisoblanadi. Infratuzilmani yaratish davlatga qo'yiladigan talablar ichida ko'p takrorlanadi, chunki bu "bozor kuchlarining erkin o'ynashini" cheklashga imkon beradi. Infratuzilmani yaratishda davlatning keng ishtirok etishi kerakligi ushbu faoliyat sohasi xususiy kapital uchun yetarlicha jozibador emas degan asosiy qoidaga asoslanadi. G'arb iqtisodchilarining fikricha, davlat umumxo'jalik va ijtimoiy-madaniy maqsadlarga xizmat qiluvchi kapitalni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Ular shunga asoslanib, infratuzilmani qurish davlatning vazifasi degan xulosaga keladilar.

Mazkur tendensiyaning shakllanishi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat xarajatlarining o'sishiga asoslanadi. (1-rasm)




1-jadval: Tanlab olingan mamlaktlar bo'yicha Yalpi ichki mahsulotning ulushida davlat xarajatlarining o'sib borishi[1]

| Tanlab olingan mamlakat | 1972-yil | 2020-yil | Mutloq o'zgarish | Nisbiy o'zgarish |
|---|---|---|---|---|
| Finlyandiya | 20,66% | 41,15% | +20,49 пп. | +99% |
| Buyuk Britaniya | 29,51% | 47,56% | +18,05 пп. | +61% |
| Amerika Qo'shma Shtatlari | 17,80% | 32,19% | +14,40 пп. | +81% |
| Yaponiya | 11,01% | 23,68% | +12,67 пп. | +115% |
| Germaniya | 20,17% | 32,57% | +12,40 пп. | +61% |
| Singapur | 15,00% | 26,03% | +11,04 пп. | +74% |
| Hindiston | 8,73% | 15,66% | +6,93 п.п. | +79% |
| Rossiya | | 35,39% | | |
| O'zbekiston | | 21,13% | | |

Quyidagi vizualizatsiya butun dunyo bo'ylab milliy daromadning ulushi sifatida markaziy hukumat xarajatlarining so'nggi hisob-kitoblarini aks ettiradi. Ma'lumotlar Jahon taraqqiyot ko'rsatkichlarining bir qismi sifatida nashr etilgan va XVFdan olingan. Jadvalning eng yorqin xususiyati – bu dunyo mintaqalari o'rtasidagi heterojenlik darajasi. Yuqori daromadli mamlakatlardagi markaziy hukumatlar, ayniqsa Yevropada, kam daromadli mamlakatlar hukumatlariga qaraganda milliy ishlab chiqarishning ancha katta qismini nazorat qiladi. Finlandiya kabi davlatlar O'zbekiston kabi davlatlarga qaraganda bir necha barobar ko'p pul sarflaydi.

G'arb iqtisodchilarining fikriga ko'ra, davlat aralashuvi obyektlariga faqat kam daromadli, sarf-xarajatlar sekin qoplanadigan, rivojlanishi butun iqtisodiyot uchun bir xil darajada zarur bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarigina kirishi kerak. Budjet mablag'larini bunday tarmoqlarga sarmoya sifatida sarflash orqali davlat xususiy kapitalni norentabel xarajatlardan ozod qiladi, va shu bilan birga uning raqobatchisiga aylanmaslik uchun xususiy kapital ishlaydigan serdaromad sohalardan chekinadi. Infratuzilmaga investitsiyalarning maqsadi bevosita foyda olish emas, balki xususiy kapital faolligini oshirish hisoblanadi. Davlat faoliyatini xususiy kapitalning maqsadlariga bo'ysundirish A. Xirshmanning "Iqtisodiy rivojlanish strategiyasi" asarida nazariy jihatdan asoslangan. U o'z asarida iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda davlatning ikkita funksiyasi: birinchisi, muvozanatni buzishga, ikkinchisi esa buzilgan muvozanatni tiklashga, yangi iqtisodiy xohishlarni keltirib chiqaradigan sabablarni jilovlashga xizmat qilishi haqida gapiradi [5, 6].

Bizningcha, aynan shu vazifa infratuzilmani yaratish va rivojlantirish bilan bog'liq faoliyatdir. Bu esa davlat xo'jalik faoliyatini xususiy kapital manfaatlariga bo'ysundirishni anglatadi.

1 https://ourworldindata.org/government-spending#government-spending-across-the-world 825;. Tanzi Vito. The Changing Role of the State in the Economy: A Historical Perspective // IMF Working Paper 97/114, September 1997, p. 13-14. Statistikal Abstract of the U.S., 2004.

Shvetsiyalik iqtisodchi G.Myurdal o‘zining “Jahon iqtisodiyoti” nomli asarida infratuzilmani qurishda davlat faoliyatiga katta ahamiyat beradi. U davlat faolligining muqarrarligini, eng avvalo, energetika, transport va boshqa sohalarda xususiy sektor moliyalashtira olmaydigan darajada katta sarmoya zarurligi bilan tushuntiradi. Dastlabki rivojlanish uchun u xalq xo‘jaligidagi mutanosiblikni ta’minlash zarurligini tan oladi, chunki bu vazifa o‘z-o‘zidan bajarilib qolmaydi. Uning fikricha, davlatning vazifasi nafaqat bozor mexanizmini erkinlashtirish, balki uni ilhomlantirish va rivojlantirishdan ham iborat”. G.Myurdalning xulosalari o‘ziga xos bo‘lmasdan, yozuvchi hamkasblarining fikrlariga o‘xshab ketadi. Rostou, Xirshman, Samuelson va boshqa ko‘plab olimlar unga o‘xshab, xususiy kapitalning ishlashi va takomillashishi uchun foyda keltiruvchi shart-sharoitlarni yaratish zarur degan g‘oyani himoya qiladilar. Yana bir guruh garb iqtisodchilari infratuzilma muammosiga asosiy nazariy yondashuvlardan biri xususiy va davlat kapitali o‘rtasidagi, xususiy va ijtimoiy xarajatlar o‘rtasidagi ziddiyatni hal qilish yo‘llarini izlash hisoblanadi. Xususiy kapital nuqtayi nazaridan ushbu ziddiyatni tahlil qilishga qiziqarli misol – bu amerikalik iqtisodchi G.Leybenshteynning “Iqtisodiy qoloqlik va iqtisodiy o‘sish” nomli asarida bayon etilgan xususiy tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatining nolga teng bo‘lmagan impulslari nazariyasidir. U o‘yinlar nazariyasi atamalari yordamida tadbirkorning o‘zi uchun foydali bo‘lgan, lekin mamlakatda iqtisodiy o‘sishga olib kelmaydigan harakatlari “nolga teng” samaraga yoki nol natijaga olib kelishini aytadi. Amerikalik iqtisodchi E. Roy Vayntraub uning fikrlarini takrorlab, iqtisodiyotda bozor mexanizmining ishlash natijalari kishilarning, alohida shaxs nuqtayi nazaridan oqilona, lekin jamiyat nuqtayi nazaridan samarasiz xatti-harakatlari bilan belgilanishini ko‘rsatadigan ko‘plab misollar mavjudligini, hamda eng yaxshi natijalarga erishish uchun davlat iqtisodiy jarayon ishtirokchilarining tanloviga ta’sir ko‘rsatishi zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu holatlar “nima uchun “laissez – faire” (ya’ni “bajarishga imkon bering”, yoki aralashmaslik) tamoyiliga mos kelmaydigan, lekin samarali natijalarga erishishga yordam beradigan turli real institutlarning mavjudligi asosli ekanligini tushunishga yordam beradi”, deb davom etadi [7]. Umuman olganda, bu bevosita ijtimoiy qo‘shimcha xarajatlar konsepsiyasiga taalluqlidir.

Agar XIX asr oxiri va XX asr boshidagi erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida takror ishlab chiqarish jarayonini elektr energiyasi, gaz, transport bilan ta’minlash masalasi xususiy xo‘jaliklar yordamida bajarilgan bo‘lsa, mazkur ijtimoiy ishlab chiqarish shakllari asta-sekin o‘zaro ajralib, alohida faoliyat yuritadi, ularni rivojlantirish esa tobora ko‘proq davlat tomonidan tartibga solib boriladi. Ushbu hodisaning obyektiv asosini ijtimoiy mehnat taqsimotining chuqurlashuvi va iqtisodiy o‘sishdagi innovatsion jarayonlar ta’sirida ishlab chiqarishning umumjamoat mulkiga aylanishining kuchayishi tashkil etadi. Iqtisodiy nazariya klassiklari mazkur jarayonning rivojlanishini oldindan ko‘ra bilib, “davlat mulkiga aylantirish zarurati, eng avvalo, yirik aloqa vositalari: pochta, telegraf va temir yo‘l sohalari uchun yuzaga keladi”, deb ta’kidlaganlar [8, 9, 10].

Zamonaviy bozor iqtisodiyotida infratuzilma davlat tomonidan tartibga solinadigan muhim sohalardan biri hisoblanadi.

Ushbu tendensiya barcha rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo‘lib, uning namoyon bo‘lish darajasi ko‘p jihatdan u yoki bu mamlakatda mulkchilik shakllari rivojlanishining o‘ziga xos shakllariga bog‘liqdir. Masalan, G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida infratuzilma inshootlari (elektr stansiyalari, gaz va suv quvurlari, temir yo‘llar, avtomobil yo‘llar tarmog‘i, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari) asosan davlat mulki hisoblanadi. Bunga urushdan keyingi davrda bir qator infratuzilma tarmoqlarining milliylashtirilishi katta yordam bergan. Ular ko‘pincha zarar bilan ishlagan bo‘lib, kapital egalari ularni o‘z mablag‘lari hisobidan rivojlantirishni istamasdan, osonlikcha davlat qo‘liga topshirganlar. Keyinchalik monopoliyalar davlatga qarashli infratuzilma tarmoqlarining ishlab chiqarish salohiyatidan kapital jamg‘arish, foyda darajasini oshirish uchun qo‘shimcha manba sifatida, tovarlar sotish uchun barqaror bozor sifatida bajonidil foydalana boshladi. Mohiyatan, milliylashtirish ishlab chiqarish infratuzilmasining bir qator tarmoqlarida davlat monopoliyalarining paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Masalan, Fransiyaning “Electricite de Franc”, “Gaz de Franc” davlat kompaniyalari elektr energiyasi va gazni qazib olish, ishlab chiqarish va taqsimlashni to‘liq monopoliyalashtirib oldi.

AQSHda infratuzilmaning shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiyotning xususiy va davlat sektorlarining ustunligi o‘rtasidagi nisbatning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi. Xususiy kapitalning zo‘ravonligi davlatning xo‘jalik faoliyati sohasini cheklaydi, shuning uchun AQSHda infratuzilmaning katta qismi: axborot xizmatlari, telefon, telegraf, elektr stansiyalari, temir yo‘llar va havo liniyalari xususiy kapitalga tegishliligi bejiz emas. Biroq zamonaviy bozor iqtisodiyoti obyektiv ravishda, davlat tomonidan tartibga solinmasdan rivojlana olmaydi, shu sababli hatto AQSHda ham shtatlar va mahalliy hokimiyat organlarining infratuzilma sohasidagi iqtisodiy faolligi ortib bormoqda. Agar mahalliy hokimiyat organlari AQSH iqtisodiyotida infratuzilmaviy ta’minot tizimlarining asosiy yaratuvchilari bo‘lsa, federal hukumat bu borada faqat subsidiyalar va kreditlar ajratish orqali moliyaviy yordam beradi. Ko‘pincha ular mahalliy hokimiyat organlariga ma’lum bir dasturni amalga oshirish, masalan, jamoat transportini rivojlantirish, uy-joy qurilishi va boshqalar uchun beriladi. Shu tarzda, AQSHda 20 yil (1956–1976) ichida milliy shtatlararo yo‘llar tizimini qurish uchun federal ajratmalar 67,5 mlrd. dollargacha yetib, ushbu maqsadlarga sarflangan barcha xarajatlarning 90 foizini tashkil etdi. Qolgan 10% xarajatlar shtatlarning o‘z moliyaviy resurslari hisobidan qoplandi [11].

Shunga ko'ra, infratuzilma iqtisodiyotning tartibga solinadigan sektoriga mansub bo'lib, unda sof davlat korxonalari bilan bir qatorda xususiy va "aralash" (kapitalning bir qismi davlatga, ikkinchisi esa monopoliyalarga tegishli) mulk shaklidagi, lekin har doim bevosita davlat nazorati ostida ishlaydigan korxonalar mavjud. Bunday tartibga solishning maqsadi infratuzilma tarmoqlari "mahsulotlari"ga tariflarni belgilash, foyda me'yorini raqobatga asoslangan ishlab chiqarish darajasida ushlab turish, iqtisodiy inqirozlar davrida talabni va aholining to'lov qobiliyatini ta'minlash va h.k. orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashdan iborat. Ushbu chora-tadbirlarning barchasi davlatning iqtisodiy faoliyat sohasini sezilarli darajada kengaytiradi va mustahkamlaydi hamda infratuzilmada davlat sektorining o'sishiga olib keladi. Hatto, xususiy sektorda ishlab chiqarishning keskin qisqarishi kuzatiladigan iqtisodiy sikllarga qaramay, infratuzilmaviy faoliyat sohasi markazlashtirilgan boshqaruv tizimiga tegishli bo'lganligi sababli "ishchi holatda" saqlab turiladi.

Rivojlangan iqtisodiy tizimlarga xos bo'lgan infratuzilma muammosi har xil ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega. Masalan, bozor iqtisodiyotiga ega rivojlangan mamlakatlarda infratuzilma xususiy kapitalning "qulay" rivojjlanishining zaruriy sharti hisoblanadi, shuningdek, u o'ziga xos chegara sifatida xizmat qilib, undan tashqarida davlatning ishtiroki ortiqcha sanaladi. Infratuzilma, shu jihatdan xususiy va davlat sektorlari faoliyati, kapitalni kiritishdan foyda olinadigan sohalar va "nolga teng" daromadga ega infratuzilma tarmoqlari o'rtasidagi chegarani aniq belgilaydi. Xususiy mulk ustun bo'lmagan markazlashgan iqtisodiyot sharoitida esa infratuzilmani rivojlantirish umumxalq muammolarini samarali hal qilishga, ya'ni iqtisodiy o'sish va butun aholi farovonligini oshirishga ko'maklashishi kerak. Biroq shunga qaramay, xususan, yo'l qurilishi, mamlakatni axborotlashtirish, elektrlashtirish masalasiga yetarlicha e'tibor berilmadi. Bu esa infratuzilmani rivojlantirish masalalarini har tomonlama tadqiq qilishni, mavjud mahalliy va xorijiy tajribani o'rganishni taqozo etadi.

## METODOLOGIYA

Keltirilgan qoidalarning barchasida doimiy ravishda bir xil g'oya: davlatning iqtisodiy o'sishdagi roli, eng avvalo, ijtimoiy zarur bo'lgan, lekin xususiy kapital nuqtayi nazaridan samarasiz deb hisoblangan infratuzilma tarmoqlarida faol harakat qilishdan iborat degan fikr ilgari suriladi.

Infratuzilmaga davlat xarajatlarining iqtisodiy samaradorligini asoslash ilk bor ingliz iqtisodchisi Dj. M. Keyns tomonidan multiplikator modelida berilgan [12].

Keyns multiplikatori mustaqil (avtonom) investitsiyalarning qo'shimcha o'sishi va milliy daromadning (keyingi matnda "daromad") qo'shimcha o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Daromadning qo'shimcha o'sishi multiplikatorning qiymatiga va avtonom investitsiyalarning qo'shimcha o'sishiga to'g'ridan to'g'ri proporsional bog'liq, ya'ni.

$$\text{^U} = K \cdot \text{^I}$$

bu yerda ^U – daromadning qo'shimcha o'sishi,
K – multiplikator,
^I – avtonom investitsiyalarning qo'shimcha o'sishi.

Ushbu formulaga asosan, multiplikator daromad qo'shimcha o'sishining investitsiyalar qo'shimcha o'sishiga nisbati sifatida aniqlanadi, ya'ni

K=^U (daromadning qo'shimcha o'sishi): ^I (avtonom investitsiyalarning qo'shimcha o'sishi).

Multiplikator tamoyilining ta'sir qilish mexanizmi qanday? Bu savolga birinchi bo'lib Dj. M. Keyns – multiplikator nazariyasining asoschisi javob bergan [13]. Uning fikrlari quyidagi mazmunga ega: bandlikning yangi investitsiyalar, deylik, hukumatning ijtimoiy ishlarga sarf-xarajatlari hisobiga dastlabki o'sishi, eng zarur tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirish zarurati tufayli muqarrar ravishda bandlik, iste'mol va daromadning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va hokazo o'sishiga olib keladi. Yangi investitsiyalar, xuddi suvga tashlangan toshning to'lqinlari kabi, iqtisodiyotda zanjirli reaksiyani keltirib chiqaradi. Agar iste'molga chegaraviy moyillik (MRC) 2/3 ga teng bo'lsa, daromad 3 barobar ortadi. Bu holda, multiplikator 3 soni hisoblanadi. Demak, daromadning o'zgarishi = multiplikator (K) x investitsiyaning dastlabki o'zgarishi. Xarajatlarning dastlabki o'sishi daromadni cheksiz ravishda oshiradi deb o'ylash nojoiz. Yo'q. Bunday bo'lmaydi, chunki daromadning qo'shimcha o'sishining bir qismi jamg'ariladi va shunga mos ravishda multiplikatsiya jarayonini davom ettirishga undovchi turtki yo'qoladi. Jamg'armalarga chegaraviy moyillik (MRS) daromadlarning o'sish chegarasini belgilaydi.

Shunday qilib, MRS yoki MPS ning 1 ga teng maxrajiga teskari qiymat avtonom xarajatlar multiplikatori, yoki davlat xarajatlari multiplikatori deb ataladi. Agar davlat xarajatlari avtonom investitsiyalar sifatida ko'rib chiqilsa, multiplikator boshqa o'zgaruvchilar o'zgarmagan holda davlat xarajatlari G ning o'zgarishi natijasida YAIM qay miqdorda o'zgarganligini ko'rsatadi.




3-rasm: Davlat xarajatlari multiplikatorining ta’siri (umumiy model)[2]

Davlat xarajatlari multiplikatori ta’sirining grafikli tasviri 3-rasmda ko‘rsatilgan. 3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, iste’molga chegaraviy moyillik qanchalik yuqori bo‘lsa, ya’ni MRC qiymati birga qanchalik yaqin bo‘lsa, multiplikator qiymati shunchalik katta bo‘ladi, AD yalpi talab egri chizig‘i shunchalik tik bo‘ladi, davlat xarajatlarining o‘zgarishi maqsadli o‘zgaruvchi sifatidagi iqtisodiy faollik darajasiga shunchalik ko‘p ta’sir etadi. Bu esa davlat xarajatlarining multiplikator samarasi (multiplier effect) hisoblanadi.

Multiplikator modeli kapitalizm sharoitida foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari va yuqori ommaviy ishsizlik mavjud bo‘lgan turg‘unlik holatidagi iqtisodiyot uchun tuzilgan edi. Ushbu vaziyatdan chiqish yo‘lini topish uchun Keyns jamoat ishlari sohasida, ya’ni to‘g‘onlar, dambalar va hokazolarni qurishda davlat faoliyatini kengaytirishni taklif qildi, bundan ko‘zlangan maqsad kelgusida iste’mol buyumlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq ikkilamchi, uchlamchi, to‘rtlamchi bandlikni, va ushbu korxonalarda daromadning o‘sishini yuzaga keltirish edi. Tarmoqlar o‘rtasidagi ushbu zanjirli reaksiya multiplikatsiyalash jarayonining mohiyatini tashkil qiladi. Mazkur bog‘liqlikni hech bir iqtisodchi inkor etmadi va inkor eta olmaydi ham. Ushbu zanjirni hisoblash, va agar biron bir sohada “yalpi talab”ning o‘sishi kuzatilsa, mamlakatdagi daromad qay darajada oshadi, degan savolga yakuniy javob berish uchun Keyns va uning izdoshlari elementar multiplikator modelidan foydalanishni taklif qiladilar.

Faraz qilaylik, yo‘lni qurish uchun dastlab 1000 birlik sarf-xarajat qilingan va multiplikator 5 ga teng bo‘lgan, u holda daromadning o‘sishi 5000 birlik bo‘ladi. Keynsning fikriga ko‘ra, multiplikatsiyalash zanjiri paydo bo‘lishi uchun qandaydir turtki kerak. Unga ishlab chiqarish sohasining qayerda – I yoki II bo‘linmada kengayishi muhim emas. Keynsning fikricha, har qanday ishlar, hatto “shubhali darajadagi foydali” ishlar ham daromadning oshishiga olib kelishi mumkin. Muhimi, biron bir joyda iste’mol buyumlariga qo‘shimcha talabni yuzaga keltiruvchi turtki bo‘lishi kerak, bu esa keyinchalik butun multiplikator mexanizmini ishga tushiradi. Bundan Keynsning asosiy qoidalaridan biri – kapital jamg‘arish jarayoni iste’molning o‘sishi bilan bir vaqtda sodir bo‘lishi haqidagi g‘oyasi kelib chiqadi, ammo uning qat’iy fikriga ko‘ra, bunday “samarali talabni” faqat davlatning iqtisodiyotga aralashuvi orqaligina tashkil etish mumkin. Buning ustiga, davlat aralashuvi turli yo‘llar bilan amalga oshirilishi mumkin bo‘lib, shunga ko‘ra bandlik, iste’mol, soliq, tashqi savdo va boshqa multiplikatorlar paydo bo‘ladi. Shu asosda, multiplikator modelini infratuzilma sohasidagi davlat xarajatlari samaradorligini aniqlashga urinish sifatida tavsiflash mumkin va shu ma’noda burjua iqtisodchilari undan bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartibga solishning “foydaliligini” oqlash uchun foydalanishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, ishlab chiqarish infratuzilmasiini to‘g‘ridan to‘g‘ri davlat tomonidan tartibga solishni kamaytirish, davlat xarajatlarini qisqartirish va shu bilan birga, raqobat mexanizmini kuchaytirish orqali monopoliyalarning bozor huquqlarini kengaytirish haqida fikr bildirish mumkin.

Zamonaviy bozor iqtisodiyotining rivojlanish tarixi yo‘nalishi esa o‘ta yuqori monopol daromadlarni ta’minlash, moliyaviy kapitalning hukmronligini mustahkamlash va kengaytirish, davlat kuchi bilan bozor mexanizmi yagona mexanizm kabi chambarchas bog‘lanib ketganligi bilan ifodalanadi.

2 Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. М., 1948

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bozor iqtisodiyotida infratuzilmani rivojlantirish asosiy iqtisodiy qonunning amal qilish talablariga bo‘ysunadi, ushbu qonunning maqsadi esa qo‘shimcha qiymat ishlab chiqarishdir. Ma’lumki, kapital faqat uning nuqtayi nazaridan foydali operatsiyalarni amalga oshiradi, va ko‘pincha umumiy ishlab chiqarish sharoitlarini (yo‘llar, kanallar, ko‘priklar, jamoaviy foydalanishga mo‘ljallangan har xil inshootlar) yaratish bilan bog‘liq foydasiz operatsiyalarni esa davlat zimmasiga, aniqrog‘i butun mamlakatga yuklaydi”. Ushbu muhim uslubiy qoida, bizning fikrimizcha, kapitalning infratuzilma sohasidagi faoliyatining mohiyatini va ayniqsa, zamonaviy davrda uning harakat qilish mexanizmini ochib beradi.

Infratuzilma tarmoqlarining aksariyati tabiiy monopoliyalar hisoblanadi, shunga ko‘ra ularni ijtimoiy tartibga solish lozim. Kommunal xizmatlar, temir yo‘llar, telefon kompaniyalari, tabiiy gaz va elektr energiya yetkazib beruvchilar tomonidan belgilanadigan narx (tarif) ijtimoiy maqbul narx deb ataladi. U hukumatning tartibga soluvchi hay’atlari yoki boshqarmalari tomonidan o‘rnatiladi. Agar tartibga solish hay’atining maqsadi resurslarni taqsimlash samaradorligiga erishish bo‘lsa, u chegaraviy xarajatlarga teng bo‘lgan ushbu (maksimal) narxni qonunan o‘rnatishga harakat qilishi kerak.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Самуэльсон П. Экономика. М., 1964, с. 774.
2. Инфраструктура и интенсификация экономики. М.: Экономика, 1980
3. Жамс Э. История экономической мысли XX века. Пер. с фран. М., 1959,
4. Cootner P.H, Social Overhead capital and economic growth. – In.: The conomics of Take-off into Sustained Growth., ed. W. W. Rostow. L., 1963
5. Кудрявцева С. Новая экономика: генезис, эволюция, эффект. //Мировая экономика и международные отношения, 2005, № 4
6. Hircshman A. The Strategy of Economic Development. New Haven, 1958
7. Варнавский В. Партнерство государства и частного сектора: теория и практика. Мировая экономика и международные отношения, 2002, № 7
8. Ведута Е.Н. Государственные экономические стратегии. – М.: Деловая книга, 2004
9. Волчек Н.Э. Производственная инфраструктура в экономике освобо дившихся стран. – В кн.: Тюльпанов СИ. Очерки политической экономии (развивающиеся страны). М.:Мысль, 1979
10. Гарнов А.П. Комплексное развитие инфраструктуры рынка средств производства. М.: РЭА, 1995.
11. Афонцев С. Экономические проблемы хозяйственных преобразований. //Мировая экономика и международные отношения, 2000, №12
12. Веселая Л.С. Рыночная инфраструктура и развитие конкурентной среды. Новосибирск, ИЭОПП СО РАН, 2004
13. Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. М., 1948

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.